



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

AL-XORAZMIY NOMIDAGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

JISMONIY MADANIYAT FAKULTETI
«TIBBIY BILIM ASOSLARI» KAFEDRASI

O'QITUVCHISI

RAJAPOV XAYRULLA BEKDURDIEVICHNING

HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI ***FANIDAN YOZGAN***

REFERATI

MAVZU: «Tabiiy tushdagi favqulodda vaziyatlar xavfi tug'ilganda aholi harakati»



URGANCH 2013 y.

MAVZU: «Tabiiy tushdagi favqulodda vaziyatlar xavfi tug`ilganda aholi harakati»

REJA:

I. Kirish

1.2. Tabiiy tushdagi favqulodda vaziyatlar turlari, tasnifi

II. ASOSIY QISM:

II.1. Suv toshqini va suv toshqinidan ogohlantirish.

II.2. Viloyatimizda sodir bo`lishi mumkin bo`lgan suv toshqini haqida.

II.3. Suv bosish xavfi tug`ilganda aholini xatti-harakati va suv toshqini oqibatlarini bartaraf etish.

II.4. Zilzila xavfi tug`ilganda aholi harakati.

II.5. Sel oqimi, ko`chki va boshqa favqulodda vaziyatlar xavfi tug`ilganda aholini harakati.

II.6 Favqulodda vaziyatlar oqibalarini bartaraf etish.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

Mundarija



**« Millionlab kishilarning
taqdiri xavf ostida qolar
ekan, buni hech qanday
maqsad bilan oqlab
bo'lmaydi.»**

I.A.Karimov

I. Kirish

Ma'lumki, hayot fani insonlardan ikki asosiy vazifani talab qiladi: o'rganish va o'rgatish. Bu borada biz talabalarga davlatimiz tomonidan bilim olish, xavfsizlik ko'nikmalarini egallash uchun yetarlicha imkoniyatlar yaratilgan. Jumladan, Urganch Davlat Universitetida Respublika va Xorazm viloyati xokimiyati hamda Viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmasi tomonidan belgilangan "Kundalik turmushda sodir bo'layotgan favqulodda vaziyatlarni oldini olish va ularni bartaraf qilish" kabi bir qator ko'rsatmalari asosida ham bilim olib kelmoqdamiz. Buyuk olim F.Engels o'z zamonasidayoq tabiat noz-ne'matlaridan, qazilma boyliklardan oqilona foydalanmas ekanmiz, tabiat bizdan bir kunmas bir kun o'ch oladi deb ta'kidlagan. Ommaviy axborot vositalari orqali kuzatishlarim bo'yicha hozirgi kunda sodir bo'layotgan tabiiy, texnogen va ekologik favqulodda vaziyatlarning miqdor jihatdan ortganligini yuqoridagi iborani tasdiqi deb bilaman.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq respublikamizda aniq ishlab chiqila boshlangan boshqaruv tizimi, davlat va jamoatchilik tuzilmalari tobora takomillashib, hozirda puxta, izchil shaklga keldi. Bugun ular nafaqat mamlakatimiz, balki dunyo miqyosida ham tan olinib, yetakchi o'rinlarni egallab bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Fuqaro mudofaasi va favqulodda vaziyatlar boshqarmasi negizida 1996 yil 4 martda O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tashkil etildi.

Vazirlikning maqsadi – mamlakatimiz aholisi va xududlarini tabiiy va texnogen tushdagi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, ularning oldini olish, sodir bo'lganda bartaraf qilishdan iborat.

Sir emaski, kutilmaganda yuzaga keladigan favqulodda vaziyat odamlarning qurbon bo'lishiga olib keladi, iqtisodiyot ob'ektlarini vayron qiladi. Bu esa davlat iqsodiyotiga katta ziyon yetkazib, boshqaruv tizimi barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi O'zbekiston Respublikasining "Aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida", "Fuqaro muhofazasi to'g'risida", "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida", "Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida", "Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida", "Qutqaruv xizmati va qutqaruvchi maqomi to'g'risida" gi va boshqa qonunlari, mamlakatimiz Prezidentining qarorlari va farmonlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlarini bajarish bo'yicha faoliyat olib boradi.

Men "Hayot faoliyati xavfsizligi" fanidan olgan bilim va ko'nikmalarimga tayanib, bugungi kunda iqlimni o'zgarishi bilan sodir bo'layotgan favqulodda vaziyatlar, ayniqsa tabiiy favqulodda vaziyatlar, ularni sodir bo'lish sabablari, oqibatlarini, oldini olish tadbirlari, bartaraf qilish hamda aholini harakat tartibi to'g'risida to'xtalib o'tishni lozim topdim.

Tabiiy ofat - bu tabiatda yuz beradigan favquloddagi o'zgarish bo'lib, u birdan, tezlikda insonlarning mo'tadil yashash, ishlash sharoitlarining buzilishi, odamlarning o'limi hamda, qishloq ho'jaligi hayvonlarning, moddiy boyliklarning yo'q bo'lib ketishi bilan tugaydigan hodisalardir. Tabiiy ofatlarning turi xilma-xil: suv toshqini, yer silkinishi, kuchli shamol, yong'in, qurg'oqchilik, yer surilishi va boshqalar.

Hech narsaga bog'liq bo'lmagan tabiiy ofatlar juda katta miqyosda va turli vaqtlargacha bir necha soniya daqiqadan (yer surilishi, yer silkinishi, qor ko'chishi) bir necha soatlargacha (kuchli qor va yomg'ir yog'ishi), hatto kun va oygacha (suv toshqini va yong'in bo'lishi) cho'zilishi mumkin

I.2. Tabiiy tusdagi favqulodda vaziyatlar turlari, tasnifi

Tabiiy ofat - bu tabiatda yuz beradigan favkuloddagi o'zgarish bo'lib, u birdan, tezlikda insonlarning mo'tadil yashash, ishlash sharoitlarining buzilishi, odamlarning o'limi hamda kishlok ho'jaligi hayvonlarning, moddiy boyliklarning yo'k bo'lib ketishi bilan tugaydigan hodisalardir. Tibiiy ofatlarning turli hilma-hil: er silkinishi, suv toshqini, kuchli shamol, yong'in, qurg'oqchilik, er surilishi va boshqalar.

Hech narsaga bog'liq bo'lmagan tabiiy ofatlar juda katta miqyosda va turli vaqtlaricha bir necha soniya daqiqadan (er surilishi, er silkinishi, kor ko'chishi) bir necha soatlargacha (kuchli kor va yomg'ir yog'ishi), hatto kun va oygacha (suv toshqini va yong'in bo'lishi) cho'zilishi mumkin.

Tabiiy tusdagi favqulodda vaziyatlarga 3 hil turdagi havfli hodisalar kiradi :

1) Geologik havfli hodisalar: zilzilalar, er ko'chishlari tog' o'prishlari va boshqa geologik hodisalar;

2) Gidrometeorologik havfli hodisalar: suv toshqinlari, sellar, kor ko'chkilari, kuchli shamollar (dovullar), jala va boshqa havfli gidrometeorologik hodisalar;

3) Favqulodda epidemiologik, epizootik va epifittotik vaziyatlar: alohida havfli infektsiyalar (o'lat, vabo, sarg'ayma, isitma) yuqumli kasalliklar, rikketsiyalar- epidemik toshmali terlama, Bril kasalligi, zoonoz infektsiyalar-Sibir yarasi, qutilrish, virusli infektsiyalar-SPID;

Epidemiya - odamlarning guruh bo'lib yuqumli kasallanishi (zaharli modda bilan hamda oziq-ovqatdan ommaviy zaharlanish); epizootiya-hayvonlarning ommaviy kasallanishi yoki nobud bo'lishi; Epifittoti esa o'simliklarning ommaviy nobud bo'lishidir.

Geologik favqulodda holatlarga – vulqonlar otilishi va er qimirlashlari kiradi. ***Er qimirlashi*** – eng xavfli va vayron qiluvchi favqulodda holatdir. Er qimirlaganda atrofni o'rab turgan fazoda seysmik zarb kuzatiladi, vulqonlar otilishi, tsunamilar paydo bo'lishi, tog' qatlamlarini so'rilishi, qor va muzliklarni ko'chishi va boshqa hodisalar ro'y berishi mumkin. Er yuzasidagi er qimirlash kuchini ball orqali ifodalash, uning ob'ektga ta'sirini esa er qimirlashning intensivligi sifatida qabul qilingan. Er qimirlash kuchi 1 dan 4 ballgacha bo'lganda binolar va inshootlarga zarar etmaydi, er yuzasida va suvlarda o'zgarishlar kuzatilmaydi.

Vulqon otilishi etarlicha xavfga ega bo'lgan geologik hodisa hisoblanadi. Er qatlamida sodir buluvchi, otiluvchi jarayonlar hozirgacha etarlicha o'rganilmagan.

Gidrometeorologik favqulodda holatlar. Meteorologik favqulodda holatlarga suv bosishlari, kuchli shamol, bo'ronlar, dovullar, girdoblar, suv toshqinlari, er so'rilishlari, qor ko'chkilari, er kuchishlari va boshqalar kiradi. Suv bosishi bu ma'lum hududni daryo, ko'l va dengizlar sathining ko'tarilishi natijasida vaqtinchalik suv bosgan hududlardir. Bu holat kuchli

yomg'ir yog'ishi, muzliklarning tez erishi, suv hovzalari va gidrotexnik inshootlar dambalarini buzilishi, dengiz tomondan daryolarga suvlarni shamol yoki tsunami orqali haydalishida yuz beradi. Suv bosishlari qisqa (bir necha soatdan bir necha haftagacha) va uzoq muddatli (2 haftadan ortiq) bo'ladi. Suv bosishi vaqtida odamlar sog'ligi va hayoti uchun real xavf tug'iladi, inshootlar va kommunikatsiyalar vayron bo'ladi, uskunalar ishdan chiqadi, hayvonlar halok bo'ladi, suv ostida qolgan ekin va moddiy boyliklar yo'qotiladi. Bundan tashqari suv bosish hududida hamda aholi ko'chirilgan joyda sanitar-gigienik va sanitar-epidemiologik holat yomonlashadi. Suv bosishidan ko'riladigan zararni kamaytirish uchun aholii o'rtasida ogohlantirish ishlari olib boriladi. Ogohlantirish ishlari ikki turga bo'linib uzoq muddatli va bevosita suv bosishi xavfi vujudga kelgan joyda amalga oshiriladi. Birinchi holatda profilaktik tadbirlar daryo, ko'llar hovzalarida va dengiz qirg'og'idagi suvdan qo'riqlash kompleks tadbirlari doirasida umumiy tartibda olib boriladi. Ogohlantiruvchi ishlarga suv bosishi xavfi vujudga kelganda Gidrometxizmatining signali va xabaridan so'ng kirishiladi. Odatda suvni tarqalib ketishini cheklash uchun chiqarish kanallari qaziladi, dambalar va himoya to'siqlari quriladi, ertulali binolar germetiklanadi, birinchi qavatdagi derazalar va eshiklar suv kirmaydigan qilib yopiladi. Avariya holatlari yuz berishi vaqtida kerakli jihozlar va materiallar, rezina etik zahiralari, kiyimlar, qumli xaltalar tayyorlanadi. O'lchash jihozlari, zarur holda kuzatish postlari o'rnatiladi. Amaliyotning ko'rsatishicha amalga oshirilgan ushbu tadbirlar yo'qotishlarni 60 % gacha kamaytiradi. Agar suv bosishi yuz berib, odamlar suv bosgan zonada qolsa ularni qutqarish uchun qayiq, katerlardan va odamni ushlab tura oladigan qo'ldan tayyorlangan boshqa vositalardan foydalanish mumkin.

Kuchli shamol va uning oqibatlari. Kuchli shamol ham insonlar hayotiga va xalq xo'jaligiga jiddiy zarar etkazadigan ofatdir. Bu ofat uzoq davom etuvchi va buzish kuchiga ega. Bu ofatning tezligi 30 – 90 m/s.ga etadi. O'rta Osiyo mintaqalarida shamolning kuchi 40 – 60 m/s.ga, O'zbekistonning Xovos, Bekobod tumanlarida esa 50 – 60 m/s.ni tashkil etadi. Kuchli shamolning paydo bo'lishi, ya'ni atmosferada muvozanatning buzilishi natijasida havo oqimi juda katta tezlikda harakatlanib, ba'zi joylarda, u o'rama (voronka) harakatga aylanib ketadi. Bunday ofat oqibatida odamlarning halok bo'lishi, inshootlarning buzilishi, ekinzorlarning payhon etishi, elektr – telefon tarmoqlarining izdan chiqishi va boshqa oqibatlarga olib keladi. Shuningdek, kuchli shamol esganda odamlar, uy hayvonlari yuradigan yo'llardan adashadilar, simyog'ochlar, daraxtlar ag'anaydi, uylarning tomlari buzilishi natijasida odamlar turli darajada jarohat oladilar.

Shuning uchun bunday favqulodda holatda odamlar engil, baland qurilgan imoratlardan, elektr tarmoqlari osilgan simyog'ochlardan, ko'priklardan uzoqroq joylarda saqlanishlari lozim. Bu ofatdan eng ishonchli saqlovchi omil – bu himoya inshootlari (metro, er osti yo'laklari, uylarning erto'lalari va boshqalar) hisoblanadi.

Bu ofatdan saqlanishning yana bir omili – ofat haqida odamlarni o'z vaqtida ogoh qilishdir. Albatta, hozirgi paytda ob-havoni bir necha kun oldindan ayta oladigan zamonaviy uslublar yaratilganki, bularning bergan ma'lumotlari asosida nafaqat odamlarni, balki uy hayvonlarini, moddiy boyliklarni falokatdan asrash, buzilishi yoki yaroqsiz holga kelishining oldini olish mumkin.

**Bo`ron, dovul va girdoblar** – bu favqulodda tez yuz beradigan havo yoki shamolning ko`p holatdagi katastrofik harakatidir. Ular atmosferadagi siklonik faoliyatlar natijasida yuz beradi. Bu favquloddagi holatlarning haloqatli kuchi shundaki bunda o`rama quvursimon harakatdagi shamolning tezligi soatiga 100 km/s dan oshadi. Dovul eng quvvatli favquloddagi hodisalardan bo`lib, o`zining haloqatli ta`siri bo`yicha er qimirlashi bilan tenglashtiriladi. U kutilmaganda yuz beradi. Dovul quriqlikdagi qurilishlarni, aloqa va elektr tarmoqlarini, transport kommunikatsiyalarini va ko`priklarni vayron qiladi, daraxtlarni sindirib tomiri bilan sug`uradi, dalalarni yalang`ochlaydi; dengiz yuzasida tarqalganda 10-12 m balanlikdagi ulkan to`lqinlarni hosil qiladi, odamlarni halok bo`lishiga olib keladi. Garmsel dovulning boshqa ko`rinishidir. U dovulga qaraganda past darajadagi nisbiy namlikka ega bo`lib, tuproq erroziyasiga va erga ekilgan ekinlarni er bilan birga shamollatib quritadi, tuproqqa ko`madi, ekinlarni tomirini ochib tashlaydi. Bunga diametri bir necha o`n metrdan yuz metrgacha bo`lgan vertikal, ba`zan qiyshaygan simyog`ochga o`xshash, tez aylanuvchi girdobni ham kiritish mumkin.

Bo`ron va girdoblardan odamlarni shikastlanishi tananing har xil joyidagi yopiq jarohatlar, shishlar, sinishlar, bosh miya chayqalishi, qon oqadigan yaralanishlarda ko`rinadi. Ob-havoni bilishning zamonaviy usullari bo`ron yo`nalishi, uning tezligi haqida odamlarni bir necha soat, hatto bir necha kun oldin ogohlantirish imkoniyatini beradi.

Yaqinlashib kelayotgan xavf haqida ogohlantirilgandan so`ng tezlik bilan uni oldini olish tadbirlarini amalga oshirishga kirishish kerak. Mustahkamligi etarlicha bo`lmagan konstruksiyalarni va kranlarni mustahkamlash, binolardagi, tomdagi derazalarni, shamollatish tuynuklarini yopish lozim bo`ladi. Shamolga yo`nalishiga teskari eshik va derazalarni binodagi bosimni muvozanatlash uchun ochiq qoldirish lozim. Tomdagi, balkondagi tushib ketganda odamlarga jarohat etkazishi lozim bo`lgan buyum va jihozlarni chetga olish kerak. Tibbiy dori-darmonlar va bog`lash materiallarini olib qo`yishni unutmaslik tavsiya etiladi. Agar bo`ron, garmsel yoki girdobga ochiq dalada to`g`ri kelib qolinsa urning chuqurroq joyiga, uraga va shunga o`xshash joyga erga iloji boricha zich yotib olish zarur bo`ladi.


Suv toshqini - bu vaqtinchalik yomg`ir yoki tosh-shag`al aralash suv oqimi bo`lib kutilmaganda ko`p jala qo`yishi, qorlar erishi, er qimirlash yoki boshqa sabablarga ko`ra ko`l, suv hovzalarining dambalarini buzilishida yuzaga keladi. Katta massaga va yuqori tezlikka ega bo`lgan suv toshqini o`zining yo`lidagi binolarni, yo`llarni, gidrotexnik va boshqa inshootlarni vayron

qiladi, aloqa va elektr uzatish tarmoqlarini ishdan chiqaradi, bog'larni yo'q qiladi, haydalgan erlarni yuvib ketadi, odamlar va hayvonlarni halok bo'lishiga sabab bo'ladi.

Er ko'chishi – o'z og'irligi ta'sirida ma'lum er yuzasini balandlikdan pastga siljishi yoki so'rilishidir. Bu har xil sabablarga ko'ra er yuzasidagi tuproq og'irligi muvozanatini buzilishi hisobiga sodir bo'ladi. Er ko'chkisi aholi punktlarini vayron qilishi, qishloq xo'jalik ekinlarini yo'qotishi, transport kommunikatsiyalarini, quvurlarni, elektr va aloqa tarmoqlarini izdan chiqaradi, gidrotexnik inshootlariga zarar etkazadi. Bundan tashqari u soylarni to'ldirib, suv yo'llarini to'sib qolishi va suv toshqini xavfini yuzaga keltirishi mumkin. Suv toshqini va er ko'chishi xavfi vujudga kelgan joylardan odamlar piyoda yoki transport vositalarida xavfsiz joyga ko'chiriladi. Odamlar bilan birgalikda moddiy boyliklar va qishloq xo'jalik hayvonlarini ham ko'chirish ko'zda tutiladi. Er ko'chishda odamlar ko'chki ostida qolishlari, har xil buyumlar va konstruktsiyalarga urilishi yoki ularni odamlarga kelib urilishi natijasida jarohatlanishlari mumkin. Bunday holatlarda shikastlanganlarga tezlik bilan yordam ko'rsatish, zarur holda sun'iy nafas berish lozim. Qor ko'chish ham yuqorida qayd etilgan favqulodda holatlar kabi o'zining salbiy oqibatlariga ega. Shu sababli bunday xavflar mavjud bo'lgan tog'li rayonlarda aholini bu xavfdan ogohlantirish va himoyalash tadbirlarini doimiy yo'lga qo'yish talab etiladi.

II. ASOSIY QISM:

II.1 Suv toshqini va suv toshqinidan ogohlantirish:



Suv toshqini – daryo, ko'l, suv ombori yoki dengiz sathini ko'tarilishi natijasida joyning vaqtinchalik suv ostida qolishi hisoblanadi.

Suv toshqini qor va muzliklarning erishi natijasida paydo bo'ladigan sunami, to'fon, dengiz shamollari, suv omborlaridagi, daryolardagi, kanallardagi gidrotexnika inshootining buzilishi, baland tog' ko'llarining urib ketishi natijasida suv bosishi, avariya va halokatlarga olib keladi hamda odamlar qurbon bo'lishiga, sanoat va qishloq xo'jalik ob'ektlari ishining izdan chiqishiga, suv bosgan zonadagi aholining hayot faoliyati buzilishiga sabab bo'ladi va shoshilinch evakuatsiya tadbirlari o'tkazilishini talab qiladigan favqulodda vaziyatlar toifasiga kiradi.

Gidrologlar barcha suv toshish hollarini 4 ga ajratadilar:

Past – tekislik daryolarda 5-10 yilda bir marta kuzatiladi. Ba'zi tayyorgarlik talablari ko'rilganda ular hayot faoliyatiga ta'sir qilmaydi.

Yuqori – ular har 20-25 yilda bir marta sodir bo'lib, daryo vodiylarning anchagina katta maydonlarni suv bosadi, ayrim hollarda kundalik turmush tarziga zarar yetadi. Ba'zi hollarda odamlarni xavfsiz joylarga ko'chirishga to'g'ri keladi.

Halokatli – har 50-100 yilda bir marta sodir bo'ladi, bir necha daryo tizimlarini suv bosadi, hayot tarzi butunlay o'zgaradi.

Suv toshqinlarini kelib chiqishiga ko'ra 6 turga bo'linadi;

- Bahorgi muz qorlarni erishi bilan bog'liq;

- Yomg'ir yoki qish vaqtidagi qorlarni erishidan hosil bo'ladigan;
- Daryo o'zanida oqimga ko'rsatilgan qarshilik bilan bog'liq;
- Katta ko'l va suv omborlari qirg'oqlarida shamol yordamida hosil bo'ladigan;
- Gidrotexnik inshootlar to'g'onlarning yorilishidan yuzaga keladigan;
- Suv osti zilzilalari yoki vulqon otilishidan hosil bo'ladi;

Viloyatimizda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan suv toshqini haqida;

Xorazm viloyati dengiz sathidan ancha pasitda joylashganligi tufayli suv bosish xavfi mavjud ekanligini e'tirof etish lozim. Bunga viloyatimiz hududidan oqib o'tadigan "Amudaryo" daryosi, "Tuyamuyin" suv ombori hamda eng halokatlisi Tojikiston Respublikasi hududida joylashgan "Sarez" ko'li to'g'oni yorilishi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlar (suv toshqini) sodir bo'lishi mumkin. Viloyat hududidan sel va toshqin oqibatlarini keltirib chiqaruvchi omil bu "Amudaryo" daryosining sohili bo'yi bo'lib, ayniqsa bahor va yoz mavsumida suv toshqini xavfi ancha yuqori bo'ladi. "Amudaryo" daryosidan suv toshqini bo'lgan vaziyatda viloyatning Xozarasp, Xonqa, Bog'ot, Urganch tumani, Yangibozor hamda Gurlan tumanlari suv ostida qoladi.

Viloyatimiz hududiga yana bir suv bosish xavfi bo'lib, u qo'shni Tojikiston Respublikasi hududida joylashgan "Sarez" ko'lida suv toshganda, to'g'on buzulganda yoki kuchli yer qimirlashi sodir bo'lganda xavf paydo bo'lishi mumkin.

"Sarez" ko'li Pomir tog'larida Tojikiston Respublikasining tog'li Badahshon avtonom viloyati hududida dengiz sathidan 3250 m balandlikda Muzloq va Rushshon – Buzdaryo tog' massivlari oralig'ida joylashgan. Bu ko'l 1911 yil 18 fevralda 19 fevralga o'tar kechasi Pomir tog'ining markaziy qismida sodir bo'lgan kuchli 9 balli zilzila natijasida Murg'ob daryosining vodiysiga hajmi 2,2 km² metr keladigan tog' jinsi bo'lagi ko'chib, 2,5 km masofani bosib o'tib daryo o'zanini 450-500 m qalinlikda, 2 km uzunlikda, 1 km kenglikda qumtosh, ohaktosh, gips va boshqa jinsdan tashkil topgan tabiiy to'g'on tog' to'sib qo'ygan. Talofat natijasida Usoy qishlog'i ko'chki ostida qolib 54 kishi nobud bo'lgan. Murg'ob daryosininng Usoy ko'chkisi tufayli berkilib qolishi natijasida paydo bo'lgan suv yuzasi 80 km², chuqurligi 5000 m, ko'lining hajmi 16,5-17,5 millyard kub km ni tashkil etadi. Usoy ko'chkisining balandligi 550 metrdan 750 metrgacha bo'lgan tabiiy to'g'on hisoblanadi. To'g'on tepasining uzunligi 5,2 km, eni 200 m, pastki qismini eni 5000 m dan iborat. Ko'chkining asosiy qismini qoyatoshlar tashkil etib, shimoliy qismida to'g'onning yemirilgan joylari ko'p. Hozirgi kunda bu tabiiy to'g'on barqaror inshoot hisoblanadi, ammo bu inshootning barqaror va mustahkam turishiga qarshi real xavf bor, bu mexanika instituti ma'lumotlari bo'yicha 2,5 m³ ulkan qoyatosh qulashi ehtimoli tufayli balandligi 100 metrgacha bo'lgan suv to'lqinlarining to'g'on devorini buzish xavfidir. To'g'on ko'chkisi zilzila natijasida vujudga kelishi mumkin. Lekin zilzila sodir bo'lmagan taqdirda ham ko'l tepasidagi qoyaning

qulash ehtimoli mavjud, chunki uning tepasidagi qoyadagi yoriq uzunligi 1,5 km ni tashkil qiladi. Bu yoriq dengiz sathidan 3900-4000 metr, yani ko'l sathidan 400-500 metr balandda joylashgan.

Sarez ko'lining to'g'oni yemrilish natijasida balandligi 60-100 m va 80 km/s tezlikdagi ulkan suv oqimi Bartong va Panj daryolari hamda Amudaryo bo'ylab tarqaladi. Halokatli suv toshqin zonasi Tojikiston, O'zbekiston, Turkmaniston va Afg'oniston Respublikalari hududlarini ayrim qismlarini o'z ichiga olib suv ostida qoladigan yerlarning umumiy maydoni 69 ming km²ni tashkil etadi. Bu joylarda 6 mln.ga yaqin aholi yashaydi. 6 metrli suv oqimi 100 soatdan so'ng Tuyamuyin suv omborigacha etib keladi. Viloyat hududlarini 100% suv ostida qolish xavfi mavjud.

Suv bosish xavfi tug'ilganda aholining xatti harakati va faoliyati qoidalari:

Suv bosadigan zonadagi aholining hammasi suv bosish ehtimoli bo'lgan zonalarni va suv bosadigan vaqtlarni shuningdek, shikastlovchi omillarni (suv qancha balandlikda bo'lishi va qachon yetib kelishi) juda yaxshi bilishi kerak. Suv toshqini ehtimoli borligi va sodir bo'lgani haqida xabar berilganda nimalarni va qanday qilishni har bir kishi bilishi shart.

Aholini hammasi suv bosish ehtimoli borligi, suv bosish vaqti, uning chegaralari haqida oldindan taxmini, muhofaza qilish xatti harakatlari, evakuatsiya tartibi haqidagi tavsiyalarni vaqtida olishi kerak.



Xavf haqidagi xabarni olganda quyidagi ishlarni qilishi kerak:

- ✓ Darhol hujjatlarni qimmatbaho va kerakli buyumlarni, 2-3 kunlik oziq-ovqat va ichimlik suv zahiralarini olish;
- ✓ Boshqa kerakli narsalarni yo'qolmaydigan qilib saramjonlab qo'yish;
- ✓ Hamma energiya iste'mol qiladigan narsalarni o'chirib qo'yish;
- ✓ Chorva mollarini xavfsiz joyga o'tkazib qo'yish.

To'satdan halokatli suv bosgan paytda.

- ✓ Urib ketgan to'liqin zarbidan saqlash uchun shoshilinch choralar ko'riladi (bordi-yu to'liqin yetib kelsa, uning ichiga sho'ng'iladi);
- ✓ Oldindan tayyorlab qo'yilgan qutqaruv vositalari (4-6 ta bir litrli plasmaza idishlar osilgan najot kamari taqib olinadi).

Suv toshqini oqibatlarini bartaraf etish:


Suv toshqini (suv ostida qolish) xavfi paydo bo'lgan vaziyatlarda fuqaro muhofazalsi boshlig'ining qarori bilan boshqaruv punktlari tayyorgarlik holatiga keltirib qo'yiladi. U yerda mutassadi xodimlarni muntazam navbatchiligi tashkil etiladi, FVDT tuzilmalarining vazifalari anqlashtiriladi.

Suv toshqini xavfi paydo bo'lganda:

- ✓ Suv toshqini xavfi borligi haqidagi ma'lumotni yuqori organlarga va aholiga ma'lum qiladilar;
- ✓ Razvetka va kuzatish ishlarini kuchaytiradilar;
- ✓ Suv toshqini bor hududlarda FVDT kuch va vositalarni holatini aniqlaydilar, avariya qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni o'tkazishga tayyorgarlik ko'radilar;
- ✓ Xavfli hududlardan aholini evakuatsiya qilishga tayyorgarlik ko'radilar va kerak deb topilganda aholini va boyliklarini xavfsiz joyga ko'chiradilar;
- ✓ Suv toshqini xavfi bor hududa joylashgan korxonalarni faoliyatini qisman yoki butunlay to'xtatadilar;
- ✓ Qurolli kuchlar bo'limlari bilan aloqa o'rnatadilar va doimiy aloqada bo'ladilar.

Baland tog'lar ustida qish faslida qor juda ko'p yog'ib, uning qalinligi oshadi. O'z og'irligi kuchi ta'sirida zichlashib, qayta kristallanib yonbag'irlikda pastga qarab osilib turadi va qalinligi oshgan sari turg'unlikni susaytiradi va bahor kelib quyosh qizishi bilan qor eriy boshlaydi va shu bilan suv toshqini sodir bo'lishiga shu kabi omillar sabab bo'ladi.

TOSHQIN XAVFI TUG'ILGANDA VA SODIR BO'LGANDA AHOLINING HARAKATI



Toshqingacha bulgan xarakat:

1. Toshqin xavfi mavjud joylarda qurilish ishlarini faqat davlat organlari ruxsati bilan amalga oshiring.
2. Toshqin to'g'risidagi xabarni olgach, gaz, elektr tarmoqlarini o'chiring va qimmatbaho buyumlaringizni xavfsiz joylarga olib chiqing.
3. Oziq-ovqat, kiyim-kechak, dori-darmonlarni va qutqaruv vositalarini tayyorlab qo'ying.
4. Avvaldan belgilab qo'yilgan yo'nalish bo'yicha tezlikda xavfsiz joy (tepalik, yuqori qavat, boloxona, tom)ga chiqing.
5. Ob-havo va xabar berish signalini kuzatib boring.



Toshkindan so'nggi xarakat:

1. Uyga qaytgach, binoning mustahkamligini tekshirib ko'ring.
 2. Uzilgan va osilib yotgan elektr simlaridan ehtiyot bo'ling.
 3. Suv ostida qolgan joylardagi elektr ta'minotini tezda o'chiring.
 4. Oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini tekshirib ko'ring.
- Nam tortgan mahsulotlarni va ichimlik suvini tegishli sanitar ishlovidan o'tkazmay turib iste'mol qilish qat'iyan ma'n e'tiladi.

Ochiq olovdan foydalanmang.



Toshqin - daryo, ko'l yoki boshqa suv havzalari suv sathining keskin ko'tarilishi natijasida joyning vaqtinchalik suv ostida qolishi.

Toshqin sabablari:

1. Qor va muzlarning erishi.
2. Ko'p miqdorda yog'in yog'ishi.
3. Daryoda muzlarning tiqilib qolishi.
4. Yirik ko'llarda suvning shamol ta'sirida qirg'oqqa haydalishi.



Toshqin vaqtidagi harakat:

1. Evakuatsiya to'g'risidagi xabarni olishingiz bilan avvaldan tayyorlab qo'yilgan eng zarur buyumlaringizni olib binodan chiqib keting.
2. Suv oqimini kesib o'tishga harakat qilmang. Yordam etib kelgunga qadar xavfsiz joyni tark etmang.
3. Gulxan yoqib, fonar yoki oq mato yordamida halokat signalini bering.
4. Suv ichida qolsangiz, ustki kiyim-boshlaringiz va poyafzalaringizni echib tashlang, atrofingizdagi suzuvchi vositalardan foydalaning.
5. Bolalar va keksalarga yordam bering.

Zilzila xavfi tug'ilganda aholini xatti-harakati

Zilzila - bu yerning ichki qatlamlarida yig'ilgan tabiiy qo'shimcha kuch ta'sirida mexanik energiyaning elastik seysmik to'lqin energiyasiga aylanishi va atrofga tarqalishi natijasida sodir bo'ladigan yer silkinishlaridir.

Yer silkinishlarining paydo bo'lgan joyi *zilzila o'chog'i*, uning markazi esa *gipotsentr* deyiladi. Gipotsentrning yer yuzidagi proektsiyasi *epitsentr* deyiladi. Gipotsentr va epitsentr oralig'idagi masofa *zilzilaning chuqurligi* deyiladi.

Zilzilalar kelib chiqish sabablariga ko'ra turlari.



Tektonik zilzilalar tabiatda eng ko'p tarqalgan yer qobig'idagi jarayonlar natijasida sodir bo'ladigan yer silkinishlaridir.

Vulqon zilzilalari vulqonlar otilganda ro'y beradigan, energiyasi uncha kuchli bo'lmagan yer silkinishlaridir. Ular uzoq yillar davomida vulqon kraterlarida to'plangan katta bosim ostidagi lava qotib yotgan vulqon qopqog'ini otib yuborganda ro'y beradi. Markaziy Osiyoda harakatdagi vulqonlar yo'q bo'lganligi uchun bizning mintaqada vulqon zilzilalari bo'lmaydi.

O'pirilish zilzilalari yer ostidagi bo'shliqlarning to'satdan o'pirilishi yoki bosib qolishi vaqtida sodir bo'ladi. Bunday zilzilalar kichik hajmdagi tog' massalari bilan bog'liq bo'lganligi uchun faqat kuchsiz yer tebranishlarini keltirib chiqarishi mumkin. Ular lokal xarakterga ega bo'lib, aholiga hech qanday xavf tug'dirmaydi.

Zilzilaning kelib chiqish sabablari

Yerimiz quyosh sistemasidagi planetalardan biri bo'lib, u nihoyatda murakkab harakatga ega. Yer o'zining fizik xossalari, zichligi, solishtirma og'irligi, issiqligi, elektr o'tkazuvchanligi va boshqa xususiyatlariga ko'ra turli qatlamlarga bo'linadi.

Yerning eng ustki qatlami uning qobig'i deyiladi. Yer qobig'ining chuqurligi quruqliklarda asosan 30-50 km ni tashkil etib, ba'zi joylarda 70 km gacha boradi, okeanlarda esa 6-8 kmga boradi.

Keyingi qatlam mantiya bo'lib, u 2900 km gacha davom etadi. So'nggi qatlam 2900 km dan to yerning markazigacha davom etib u yadro qatlamidir. Yer qobig'i quruqliklarda cho'kindi tog' jinslari, "Granit" va "Bazalt" qatlamlaridan iborat. Okeanlar ostida esa "Granit" qatlami bo'lmaydi.

Yer qatlamlarida doimo murakkab kimyoviy, fizikaviy jarayonlar to'xtovsiz bo'lib turadi. Bulardan birinchisi-solishtirma og'irliklari og'ir jinslarning doimo pastga yengil jinslarning yuqoriga bo'lgan harakati. Ikkinchisi-radioaktivlik xossasi asosida bir jinslardan ikkinchisining hosil bo'lishi yoki jinslarning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishi natijasida energiya ajralishidir. Bunday reaksiyalar sodir bo'lishiga sabab, yerning chuqur qatlamlarida juda katta bosim va issiqlik mavjuddir. Bu esa radioaktivlik xossasiga asosan bir jinslarning ikkinchisiga aylanishiga va issiqlik energiyasi ajralishiga olib keladi. Energiyaning saqlanish qonuniga asosan u yo'qolib ketmaydi. Hosil bo'lgan energiya yerning ostida juda katta hajmdagi jinslarni harakatga keltiradi. O'z navbatida bu kuchlar yerning ustki qatlamlarini, yer qobig'ini harakatga keltiradi.

Bundan tashqari, O'rta Osiyo maydonida hozir tog' hosil bo'lish jarayoni davom etmoqda. Ana shu tog' hosil qiluvchi tektonik jarayonlar zilzila sodir bo'lishiga olib keladi. Eng asosiy sabab tog' hosil qiluvchi yer osti kuchlarining maydon bo'ylab bir tekislikda tarqalmasligidadir.

Hozirgi zamon geologiya fanida umuman tog'larning hosil bo'lishi va xususan zilzilalarning sabablari to'g'risida Plitalar tektonikasi nazariyasi muhim ahamiyatga ega.

Agar yer sharining xaritasiga diqqat bilan qarasak, Amerika qit'asining sharqi bilan, Yevropa va Afrika qit'alarining g'arbi nihoyatda bir-biriga yaqinligini, shuningdek Avstraliya

qit'asi shimoliy chegarasining, Afrika qit'asi janub-sharqi va Yevroosiyo qit'asining janubiy chegaralariga yaqinligini ko'ramiz.

Plitalar tektonikasi nazariyasiga asosan, okeanlardan o'tgan, tarkibi bazaltlardan iborat suv osti tog' tizimalari yerning chuqur mantiya qatlamidan uzluksiz oqib chiqayotgan magmaning qotishidan hosil bo'ladi. Keyingi hosil bo'lgan jinslar avvalgilarini suradi, bu esa plitalar surilishiga olib keladi. Ushbu nazariya tarafdorlari fikricha, tog' hosil qiluvchi va xususan, zilzilalarni keltirib chiqaruvchi asosiy kuch gorizontaal yo'nalgan bo'lib, u ikkita yoki bir nechta plitaning bir-biriga bo'lgan o'zaro ta'siridan sodir bo'ladi. Masalan O'rta Osiyoda yuz beradigan zilzilalarga sabab, janubdan shimolga harakat qilayotgan Hind plitasi bilan Yevroosiyo plitalarining to'qnashuvidir. Kuchli gorizontaal siqilish tufayli yirik tog'lar hosil bo'ladi va shu jarayonda zilzilalar ham sodir bo'ladi. Yer sharining juda ko'p maydonlarida zilzilalar bo'lib turadi, lekin ularning eng ko'pi uchta seysmik kamarda yuz beradi.

Birinchisi Tinch okean seysmik kamariga taxminan 80% zilzilalar to'g'ri keladi.

Ikkinchisi O'rtayer dengizi-Osiyo seysmik kamarida taxminan 15% zilzilalar yuz beradi.

Uchinchisi O'rta Atlantika suvosti tog' tizmalari seysmik kamariga taxminan 5% zilzilalar to'g'ri keladi. O'rtayer dengizi - Osiyo seysmik kamari g'arbda Atlantika okeani qirg'oqlaridan boshlanib, O'rtayer dengizi, Kavkaz, Markaziy Osiyo mintaqalari orqali janubi-sharq yo'nalishida davom etib Tinch okeani bilan tutashadi. O'zbekiston seysmik jihatdan O'rtayer dengizi - Osiyo seysmik kamarida joylashgan.

Magnituda. Rixter shkalasi. Klass

1940 yillarning boshlarida amerikalik tadqiqotchilar CH. Rixter va Gutenberglar tomonidan zilzila quvvatining o'lchami sifatida *magnituda* tushunchasi kiritildi (*magnituda* inglizcha so'z bo'lib, kattalik ma'nosini bildiradi). *Magnituda* shkalasi ko'pincha *rixter* shkalasi deyiladi. Eng kuchli zilzilaning magnitudasi nazariy jihatdan 9 gacha etishi mumkin. Lekin shu vaqtgacha yer kurrasida kuzatilgan zilzilalarning eng kuchlisining magnitudasi 8,8 dan ortgan emas. *Magnituda* o'lchamining afzalliklaridan biri – bu bitta stantsiyadagi yozuvga qarab ham zilzila kuchini aniqlash mumkin.

Zilzila energiyasi (E) djoul o'lchamida o'lchanadi. Ko'pincha matbuotda zilzilalar ball, *magnituda* o'lchamlari bilan bir qatorda *klass* (K) bilan ham ifodalanadi. $K = \lg E$. Masalan, zilzila energiyasi $E = 10^{10}$ dj bo'lsa, $K = 10$, ya'ni o'ninchi klassli zilzila deyiladi.

ZILZILA RO'Y BERGANDA AHOLINING HARAKATI



Zilzilaga qadar bo'lgan harakat:

1. Uyingiz va ishxonangizdagi eng xavfsiz joylarni oldindan aniqlab qo'ying.
2. Eng zarur narsalaringiz (hujjatlar, qimmatli qog'ozlar, dori qutisi) doimo tayyor holda tursin.
3. Elektr, gaz va suv tarmoqlari bekitgichlari joylashgan yerni va ulardan tezlikda foydalanishni o'rganib oling.
4. Osmo buyumlarni mahkamlab qo'ying.
5. Og'ir buyumlarni iloji boricha polga yaqinroq joylashtiring.
6. Yo'laklar va chiqish yo'llarini buyumlar bilan to'sib qo'ymang.
7. Zilzila tugagandan so'ng oila a'zolari yig'ilishi lozim bo'lgan joyni avvaldan shartlashib oling.



Zilzila - er ichki harakatlari natijasida uning yuzasida paydo bo'ladigan tebrauma harakat.

Zilzila eng dahshatli tabiiy ofatlardan biridir.

U insonlar halokati va keltiradigan iqtisodiy zarariga ko'ra tabiiy ofatlar ichida birinchi o'rinda turadi.

Shikastlovchi omillari:

1. Bino va inshootlarning shikastlanishi va qulab tushishi.
2. Yong'in, portlash, ko'chki, o'pirlash, sel kabi favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelishi.



Zilzila vaqtidagi harakat:

1. Birinchi qavatda bo'lsangiz, tezda binodan chiqing, yuqoridan ko'chib tushayotgan narsalardan ehtiyot bo'ling.
2. Ikkinchi va undan yuqori qavatlarda avvaldan belgilab qo'yilgan xavfsiz joylarni egallang.
3. Deraza, ayvon va pechkalardan uzoqroqda bo'ling.
4. Lift va zinlardan foydalanmang.
5. Ko'chada qulab tushishi mumkin bo'lgan bino, inshoot, baland devor, elektr tarmoqlaridan uzoqroq bo'lishga harakat qilting.
6. Avtomobilda ketayotgan bo'lsangiz, mashinani to'xtatib va zilzila o'tib ketgunga qadar tashqariga chiqmang.
7. Qulab tushishi mumkin bo'lgan ko'priklarni, estakada va boshqa inshootlarga yaqinlashmang.



Zilziladan so'nggi harakat:

1. Sarosimaga tushmay, xotirjamlik bilan vaziyatni baholang, jabrlanganlar va bolalarga yordam berishga kirishing.
2. Suv, gaz, elektr tarmoqlari holatini tekshiring.
3. Gugurt yoqmang, ochiq olovdan foydalanmang.
4. Elektr simlari va ularga tegib turgan buyumlardan ehtiyot bo'ling.
5. Yordamingiz zarur bo'lmasa, vayronalargayaqinlashmang.
6. Shikastlangan binolarga kirishda va ular ichida ehtiyot bo'lib harakat qiling.
7. Jabrlangan yoki vayrona uyumlari ostida qolgan bo'lsangiz, atrofdagilarning diqqatini o'zingizga jalb qilishga harakat qiling. Aslo tushkunlikka tushmang, sizni albatta qutqarib olishadi!
8. Telefon tarmoqlarini ortiqcha band qilmang.
9. Qayta silkinishlarga tayyor turing, berilayotgan axborotlarni kuzatib boring.



Sel oqimlari va ko'chkilar vaqtida aholining o'zini tutish va hatti harakat qoidalar.

Sel oqimlari – bu tog'dan oqib kelayotgan suv, qum, loy, payraxa, tosh maydalari va hatto katta-katta toshlar aralashmasidan iborat oqimdir. Ko'chkilar tog' qoyalaridagi, ko'pincha esa daryo va suv havzalaridagi muvozanatning buzilisi natijasida sodir bo'ladi; ularning paydo bo'lishiga tuproq qatlamining yer osti suvlari bilan to'yinib plastik va ko'chish holatiga kelib qolishi asosiy sabab bo'ladi, buning natijasida nishab bo'ylab juda katta tuproq massasi o'z ustidagi barcha qurilma va inshootlar bilan birga ko'chib-cho'kib tusha boshlaydi. Bunday tabiiy ofat belgilarini sezib qolish va ularni hisobga olish hamda bundan aholini xabardor qilish (ogohlantirish) ishlarining o'z vaqtida tashkil etilishi sel oqimlari va ko'chkilar vaqtida aholining o'zini tutishi va hatti-harakatlariga katta ta'sir ko'rsatadi.

Sel kelish xavfi bo'lgan rayonlarda qattiq yomg'ir yog'ib jala quyishi (sel oqimlari ko'pincha qurg'oqchilikdan keyin yoqqan qattiq yomg'ir jala quyishi natijasida vujudga keladi), tog'lardagi g'or va muzliklarning tez eriy boshlashi, tog'llari va xavzalarining to'lib toshishi, tog' daryo va soylarining tabiiy oqimida buzilish yuz berib, ular yo'nalishining o'zgarishi hamda xalqob suvlarning ko'plab hosil bo'lishi sel oqimlari vujudga kelishi mumkinligini ko'rsatuvchi bevosita belgilar hisoblanadi. Tuproq erroziyasining ortib ketishi, tog' yonbag'irlarida o't-o'lanlarning va nihollarning qurib-qovjirab qolishi ham sel kelishi ehtimolini ko'rsatuvchi xususiy belgilar hisoblanadi.

Sel oqimi bosib kelayotganligi xavfi to'g'risida ko'p hollarda aholini bor-yo'g'i bir necha o'n minut ichida ogohlantirib qolishga ulgurish mumkin. Kamdan-kam hollarda odamlarni 1-2 soat va undan ko'proq vaqt ilgari falokatdan xabardor qilish mumkin. Bunday oqim yaqinlashib kelayotganligini, undan chiqayotgan xarakterli tovushdan ham bilish mumkin, suv oqizib kelayotgan katta-katta xarsang toshlar va tosh parchalari yumalab va bir-biriga qattiq urilib, xuddi katta tezlikda yaqinlashib kelayotgan poezdning shovqinini eslatadi.

Tashkiliy xo'jalik, agrotexnika, o'rmon meliorativ va gidrotexnika tadbirlari kompleksining oldindan amalga oshirilish sel oqimiga qarshi kurashishning eng samarali usuli hisoblanadi.

Sel kelish xavfi bo'lgan rayonlarning aholisi o'rmondagi dov-daraxtlarni kesish bo'yicha dehqonchilik olib borish hamda chorva mollari boqish yuzasidan berilgan tavsiyanomalarni qat'iy ravishda bajarishlari kerak. Sel xavfi paydo bo'lganida uning aholi punktlariga kelish yo'lida platinalar quriladi, tuproq uyumlaridan tepaliklar tiklanadi hamda vaqtincha suvni to'sib qoladigan qo'shimcha to'siq-devor, turonlar tiklanadi, selning yo'lini o'zgartiradigan chuqur handaklar, hovuzlar kovlanadi va shunga o'xshash ishlar amalga oshiriladi. Har bir kishining burchi – mana shu ishlarda iloji boricha aktiv ishtirok etishdan iboratdir.

Ko'chkilar ham xuddi sel oqimlari singari kuchli yomg'ir va tuproq erroziyasi tufayli sodir bo'ladi. Shuningdek, u odamlarning yetarli darajada o'ylab ko'rilmagan faoliyatlari natijasida ham

yuz berishi mumkin. Bunday faoliyat (masalan, o'rmon massivlarining yo'q qilinishi va hatto ayrim daraxtlarni ham kesib tashlanishi, sug'orish sistemalaridan haddan tashqari ko'p foydalanish, yerning to'liq o'rganilmagan joylarida kon qazish, tuproq ishlari olib borish va shu singari ishlar) natijasida tuproqning barqarorlik xususiyatlari o'zgarib ketadi.

Binolarda yoriqlar paydo bo'lishi, ko'chalarda, qirg'oq-sohillardagi inshootlarda o'pqnalar sodir bo'lishi, yer yuzasida do'ppayib-chiqqan tepaliklar paydo bo'lishi turli yuqori konstruktsiyadagi qurilmalar poydevorining va hatto daraxtlarning quyi qismlari ularning yuqori qismiga nisbatan joyidan siljib qolishi ko'chkilar boshlanishidan darak beruvchi dastlabki alomatlar hisoblanadi.

Tog'-toshlardan keladigan suvlarning yo'lini o'zgartirish, daraxt ko'chatlari o'tkazish, tuproqni mustahkamlovchi turli injenerlik inshootlari qurish, ko'chki massivdagi tuproqni quritish maqsadida transheyalar qazish, ko'chki sodir bo'lishi kutilayotgan qiyaliklarda tuproqni tashib kamaytirish va qayta ishlash ishlari olib borish aholi ishtirok etishi zarur bo'lgan ko'chkilarning oldini olishga qaratilgan tadbirlardan hisoblanadi.

SEL XAVFI TUG'ILGANDA VA SODIR BO'LGANDA AHOLINING HARAKATI



Sel xavfi tug'ilgandagi harakat:

1. Sel kelishi mumkin bo'lgan xavfi joylarni bilib oling.
2. Qurilish ishlarini faqat davlat organlarining ruxsati bilan olib boring.
3. Xavfi maydonlarda dam olish uchun to'xtamang.
4. Sel belgilari, xabar berish signallarini kuzatib boring.
5. Oldindan xavfsiz joylarni va u erga chiqish yo'llarini belgilab qo'ying.
6. Evakuatsiya to'g'risidagi xabarni olgach, rejaga asosan harakat qiling.



Sel bo'lib o'tgandan so'nggi harakat:

1. Sel takrorlanmasligiga ishonch hosil qiling.
2. Shikastlanganlarga tezda yordam ko'rsating.
3. Uyingizning mustahkamligini sinchiklab tekshirib chiqing.
4. Turar joyingiz qum, tosh, loyqa bilan to'lib qolgan bo'lsa, tozalash ishlarini o'tkazing. Elektr simlaridan ehtiyot bo'ling. Uyni tozalab bo'lgach, eng avvalo gaz va elektr tarmoqlari holatini tekshiring.

Selning salbiy oqibatlari:

1. Odamlarning jarohatlanishi va nobud bo'lishi.
2. Bino, inshoot, aloqa, elektr, gaz, suv, issiqlik va kanalizatsiya tizimlari, transport vositalari, avtomobil va temir yo'llari hamda ko'priklarning shikastlanishi, izdan chiqishi.



Sel vaqtidagi harakat:

1. Sarosimaga tushmay, olingan axborot va vaziyatni tezda baholang.
2. Asoslangan qaror qabul qilgach, unga binoan harakat qiling.
3. Sel kelishi mumkin bo'lgan xavfi maydonlarni tezda tark eting.
4. Sel oqimiga tushib qolsangiz, oqim harakati bo'ylab burchak ostida qirg'oqqa chiqib olish harakat qiling.



QOR KO'CHKISI XAVFI TUG'ILGANDA VA SODIR BO'LGANDA AHOLINING HARAKATI



Qor ko'chkisi - og'irlik kuchi ostida yonbag'irlardagi katta hajmdagi qor uyumining pastga tushishi.
Qor ko'chkisi noyabr-may oylarida sodir bo'lishi mumkin.

SHikastlovchi omillari:

Qor ko'chkisi massasining energiyasi, 60-100 t/m² ga etuvchi dinamik zarba.
Qor ko'chkisi aholi manzilgohlari, dam olish uylari, turistik bazalar, temir va avtomobil yo'llari, elektr va aloqatarmoqlari, transport va yo'lovchilarga jiddiy xavf tug'diradi.

Qor ko'chkisi sabablari:

1. Ixtiyoriy impuls (havoning tebranishi, o'q ovozi).
2. Zilzila, kuchli shamol.
3. Inson faoliyati.

Qor ko'chkisi xavfi tug'ilgandagi harakat:

1. FV xavfi ehtimol maydonlarni bilib oling, qurilish ishlarini amalga oshirmang, FV'ning oldini oluvchi tadbirlarni ko'ring.
2. FV sodir bo'lishi mumkin bo'lgan davrda berilayotgan axborotlarni va sharoitni kuzatib, evakuatsiya va muhofaza tadbirlarini ko'zda tuting.
3. FV xavfi mavjud joyga qishki dam olishga chiqilganda: vaziyatni surishtiring, qo'yilgan barcha belgilarga rioya qiling, belgilangan yo'nalishdan chetga chiqmang, yolg'iz sayrga chiqmang, ma'muriyatni o'z sayr yo'nalishingiz haqida ogohlantiring, o'zingiz bilan doimo radiomayoq, belkuruk oling.



Qor ko'chkisi tugagandan so'nggi harakat:

1. Qor tagida qolgan bo'lsangiz, yordamni kuting, Sizni albatta qutqarib olishadi.
2. Qor uyuni ostidagi holatni bilish uchun so'lak chiqaring. Oqim yo'nalishi qanday holatdagingizdan ogoh etadi.
3. Boshqa hollarda jabrlanganlarga yordam bering, axborotlarni kuzatib boring, zaruriyat tug'ilganda qutqaruv guruhlariga ko'maklashing. Turar joyingizning mustahkamligini, gaz, elektr, suv, kanalizatsiya tarmoqlari holatini sinchiklab tekshirib chiqing. Favqulodda vaziyat oqibatlarini tugatishga kirishish.



KO'CHKI YOKI O'PIRILISH XAVFI TUG'ILGANDA VA SODIR BO'LGANDA AHOLINING HARAKATI




Ko'chki - namgarchilik tufayli ogirlik kuchi ta'sirida tog jinslarining qiyalik bo'ylab pastga tomon siljishi.

O'pirilish - ogirlik kuchi ta'sirida tog jinslarining uzilib pastga otilib tushishi.

Ko'chki va o'pirilish sabablari;

1. Namgarchilik ta'sirida tog' jinslari mustahkamligining susayishi.
2. Tabiiy jarayonlar va inson faoliyati natijasida yonbag'ir qiyaligining zaiflashuvi.
3. Geofizik jarayonlar (zilzila, dovul va b.) ta'siri.
4. Joyning tabiiy sharoiti inobatga olinmay amalga oshiriladigan xo'jalik faoliyati.



Favqulodda vaziyatgacha bulgan xarakat:

1. Ko'chki va o'pirilish hodisalari belgilari, sabablari, xavf tug'ilganda xabar berish tartibini bilib oling.
2. Xavf paydo bo'lganligi to'g'risidagi axborotlarni, favqulodda; vaziyat sodir bo'lishi ehtimoli bo'lgan joylarni kuzatib boring.
3. Hujiat va oziq-ovqat zahiralarni tayyorlab qo'ying.
4. Xavfsiz joylarga chiqib olish yo'nalishini bilib oling.
5. Xavf mavjud joylarda qurilish ishlari amalga oshirmang, dam olish uchun to'xtamang.
6. Favqulodda vaziyat ehtimoli to'g'risidagi xabarni olgach yoki dastlabki belgilarni sezishingiz bilan oq tezlikda xavfli maydondan chiqibketing.
7. SHorva mollarini xavfsiz joylarga olib keting.


Favqulodda vaziyat sodir bo'lgan vaqtdagi xarakat:

Bino ichida bo'lsangiz:

1. Berilayotgan axborotni kuzatib va ko'rsatmalarga amal qiling.
2. Sarosimaga tushmay, tezda belgilangan yo'nalish bo'yicha xavfsiz joyga chiqing.
3. Shikastlanganlarga yordam bering.

Binodan tashqaridagi xavfli erda bo'lsangiz:


1. Ko'chki harakatiga ko'ndalang yo'nalishda tez harakat qiling.
2. Bino ichiga kirmang va baland inshootlarga yaqinlashmang.



Favkulodda vaziyatdan so'nggi xarakat:

1. Xotirjamlikka berilmang.
2. Xavf-xatar boshqatohidid solmayotganligiga amin bo'ling.
3. Jabrlanganlarga yordam ko'rsating.
4. Axborotlarni kuzatib boring.
5. Zaruriyat bo'lsa qutqaruvchilarga ko'maklashing.
6. Turar joyingiz mustahkamligini sinchiklab tekshirib chiqing.
7. Gaz, suv, issiqlik, kanalizatsiya tarmoqlari holatini tekshiring.
8. Moddiy zarar haqida mahalliy hokimiyat organlariga murojaat qiling.

YONG'IN XAVFI TUG'ILGANDA VA SODIR BO'LGANDA AHOLINING HARAKATI



Yong'ingacha bo'lgan harakat:

1. YONG'in va gaz xavfsizligi qoidalariga rioya qiling.
2. Engil alanga olovchi moddalar va buyumlarni ishqilik manbai yonida saqlamang.
3. Bolalarni olovdan ehtiyot bo'lib foydalanishga o'rgating. Gurgurti bolalar qo'li etmaydigan joylarda saqlang.
4. Faqat chekish uchun maxsus ajratilgan erda cheking. O'rinda yotib chekish, yonib turgan gugurt cho'pi va sigareta qoldig'ini istalgan joyga tashlash yong'inga sabab bo'ladi.
5. Elektr asboblarni nazoratsiz qoldirmang.
6. Olov yoqishda yoqlig'i suyuqliklardan foydalanmang.
7. Qo'lbola saqlagichlarni ishlatmang.
8. Katto quvvati bir nechta elektr asbobini bir vaqtda bitta manbaga ulamang.
9. YUVilgan kiyimlarni gaz piltasi ustida quritmang.
10. YONG'in xavfi mavjud joylarda gulxun yoqmang.
11. Qutqaruv xizmati telefon raqamlarini yodda tuting:

01, 03, 05 (050, 911).



Yong'in - insonlar hayoti va faoliyatiga tahdid soluvchi, moddiy boyliklar yo'q qilib tashlanishi bilan birga kechuvi nazoratdan chiqib ketgan yonish jarayoni.

Yong'inning oldini olish uni o'chirishdan ko'ra osonroqdir. O'zingiz yong'in sababchisiga aylanib qolmang!

Yodda tuting! Yong'inni dastlabki soniyalarda bir piyola, ikkinchi soniyada bir chelak suv bilan o'chirish mumkin bo'lsa, bir necha daqiqadan so'ng esa bir necha tonna suv ham etmay qolishi mumkin.



Yong'in vaqtidagi harakat:

1. Oqilona va o'ylab tez harakat qiling.
2. O't o'chirish xizmatiga xabar bering va yong'inni mavjud vositalar yordamida o'chirishga kirishing.
3. Gaz va elektr manbaini o'chiring.
4. Odamlar va hayvonlarni qutqarishga harakat qiling. Agar odamning kiyimlari yonayotgan bo'lsa, ustiga qalin mato tashlab, erga yetqizib dumalating. Tutunli xonada erga egilib harakat bo'lsa, ustiga qalin mato tashlab, erga yetqizib dumalating. Tutunli xonada erga egilib harakat bo'lsa, ustiga qalin mato tashlab, erga yetqizib dumalating.
5. Eshik va derazalarni ochmang, yong'in kuchayib ketishi mumkin.
6. YONayotgan binodan tezlikda chiqib keting, ustiga izga namlangan cho'yshab tashlab oling.
7. Elektr asboblardan chiqqan yong'inni o'chirishda, avval uni tok manbaidan uzib qo'yng.



O'zingizni, oilangizni va ko'rinishingizni yotindan muhofaza qiling!

Yong'in sabablari:

1. Yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilmaslik.
2. Elektr tarmoqlari va uskunalardagi qisqa tuta.
3. Moddalarning o'z-o'zidan yonib ketishi.
4. «Bolala
5. Xavflitabiiy jarayonlar (yashnavab).
6. Quyosh nu
7. Ataylab o't qo'yish.

Shikastlovchi omillari:

1. Zaharli gaz va tutunlarning ajralib chiqishi.
2. Portlash.
3. Bino va inshootlarning qulab tushishi.
4. Kimyoviy, radiatsiyaviy zararlantirish va boshqa favqulodda vaziyatlar.

01

Yong'indan so'nggi harakat:

1. Bino va xonalarni tekshirib chiqing.
2. Jabrlanganlarga yordam bering.
3. Qutqaruvchilar ko'rsatmalariga amal qiling.



Favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish

Biz yuqorida ko'rib chiqqan favqulodda vaziyatlardan tashqari yana qor ko'chkisi, ko'chki va o'pirilishlar hamda yashin ta'sirida sodir bo'ladigan yong'inlar kirib, ularning sodir bo'lishi, aholini xatti-harakati to'g'risidagi ma'lumotlar quyidagi berilgan rangli **rasmlar** orqali batafsil berilgan. Shuningdek, tabiiy favqulodda vaziyatlar oqibatlarini tugatishda harakat qiluvchi bo'linmalarning harakati berilgan.



FVDT kuch va vositalari.



Ko'chkidan tozalash.



Yong'inni bartaraf etish.



Zilzila oqibatlarini tugatish.



Suvga cho'kkan odamni qutqarish.



Suvga cho'kkanlarga yordam ko'rsatish.



Aholi yashaydigan joylarda suv toshqini.



Zilziladan zararlangan joylar.



Zaharlangan joylardan aholini piyoda evakuatsiya qilish.



Shikastlanganlarga yordam ko'rsatish.



Qor ko'chkisida aholini qutqarish.



Qor ko'chkisidan tozalash.




Shoshilinch yordam ko'rsatish.



Shikastlangan oyoqqa Diterixs shinasini qo'yish.




Ikki kishi bo'lib jonlantirish.




«Og'izdan—og'iz»ga
sun'iy nafas oldirish.

Yurakni bilvosita
uqalash.



Shikastlanganni zambilda olib borish.



To'siqlardan o'tish.



Bemorni qo'lda ikki kishi bo'lib olib borish.



Bemorni opichib olib borish.



Bemorni ikki kishi bo'lib olib borish.

Xulosa

O'zbekiston Respublikasida Favqulodda vaziyat davlat va jamiyat tinchligi, xotirjam hayotiga xavf soladi. Shunday ekan sodir bo'lishi kutilayotgan xavflarni oldini olishimiz shartdir. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganlaridek, millionlab kishilarning taqdiri xavf ostida qolar ekan, buni hech qanday maqsad bilan oqlab bo'lmaydi.

Mamlakatimiz aholisi tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash, ularni ro'y berishi ehtimoli bo'lgan turli ko'rinishdagi ofatlardan muhofaza qilish, amaliy mashqlarni kuchaytirish borasida O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi va uning quyi tizimlari tomonidan bir qancha tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Fuqaro muhofazasi bo'yicha mashg'ulotlarning o'qitilishi, mutaxassislar malakasi, o'quv sinflari, auditoriyalarning jihozlanishi, ko'rgazmali va o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlanganligi, ta'lim muassasalarining Favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish rejasi, muassasa xodimlari bilan olib borilayotgan mashg'ulotlar kishilarda Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish ko'nikmalarini oshirishda ahamiyatga ega.

Fikrim yakunida shuni alohida qayd qilishim lozimki, tabiat injiqliklari oldida ojiz ekanmiz, har birimiz ular to'g'risida nazariy va amliy tushinchaga ega bo'lishimiz zarurdir. Chunki, qo'shni davlatlarda sodir bo'layotgan har xil ko'rinishdagi Favqulodda vaziyatlar, ular tufayli ko'rilyotgan moddiy va ma'naviy zararlardan xulosa qilib, bizni xududda ham sodir bo'lmaydi deb hech kim kafolat bera olmaydi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish kerakki, favqulodda vaziyatlarda uyushqoqlik, o'ziga yuklatilgan vazifani puxta va to'liq bajarish, talabchanlik va qat'iyat, temirdek qattiq intizom asosiy o'rin egallashi kerak.

Prezidentimiz I. A. Karimov aytganlaridek, – «Millionlab kishilarning taqdiri xavf ostida qolar ekan, buni hech qanday maqsad bilan oqlab bo'lmaydi».

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikga tahdid va barqarorlik kafolatlatlari. Toshkent -1997 y.
2. Tabiiy, texnogen va ekologik tushdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to'grisidagi vazirlar mahkamasining 27 oktyabr 1998 yil № 455-sonli qarori.
3. M.Tojiyev, I.Ne'matov, M.Ilhomov «Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi» Toshkent-2002 y.
4. O.Qudratov, T. G'aniev «Favqulodda vaziyatlarda fuqaro muhofazasi». Toshkent-2005 y.
5. Fuqaro muhofazasi instituti jamoasi «Tinglovchilar uchun fuqaro muhofazasi masalalari bo'yicha o'quv qo'llanmasi» Toshkent-2008 y
6. Tarix va bugun "Muhofaza+" jurnali 2011 yil 2-son.

МУНДАРИЖА

I.1. Кириш	4
I.2. Ҳаёт фаолият хавфсизлиги фанининг мақсади ва вазифалари.	6
I.3. Ҳаёт фаолият хавфсизлиги курсининг қисқача мазмуни.....	8
 II. АСОСИЙ ҚИСМ:	
Фуқаро муҳофазаси ва фавқулодда вазиятлар	
II.1. Фуқаро муҳофазаси ҳақида умумий тушунча	10
II.2. Табиий тусдаги фавқулодда вазиятлар турлари, таснифи	13
II.3. Техноген тусдаги фавқулодда вазиятлар турлари, таснифи	22
II.4. Экологик тусдаги фавқулодда вазиятлар турлари, таснифи	25
II.5. Фавқулодда вазиятларда аҳоли ҳаракати	27
 Хулоса	 32
 Фойдаланилган адабиётлар	 33